

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7829966>

Eshboyev Shahboz G'ayrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada loqaydlik kabi illatlarning jamiyat hayotiga salbiy ta'sirlari nimada ekanligi haqida ochib beriladi. Shuningdek, bu illatdan qutulish choralari va jamiyatimizdagi yoshlarning Vatanimiz oldidagi mas'uliyati to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *beparvolik, loqaydlik, aql-idrok, millat, davlatchilik, nafs, avlod, diniy-mafkuraviy, o'zbek xalqi, ibtido, intiho, meros.*

“Qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi va aksincha, qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.”

(Islom Karimov)

“Dushmanlardan qo'rqma — nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma — nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Loqayd odamlardan qo'rq — ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi.”[1] Darhaqiqat, hozirgi globallashuv davrida yurtimizdagi „Men o'zbekman“ degan har bir insondan o'z kasbiga, el-u yurtga va albatta, xalqqa fidoyi, halol va xushyor bo'lishi talab etiladi. Negaki, har kim o'z ishini puxta va sidqidildan qilsa, birovga hasad bilan emas, havas bilan boqsa, bir-biriga chog' qazimasa, albatta, bu millat rivojining asosli kafoloti hisoblanadi.

Har kim o'zining ishiga halol yondashsa, haromdan xazar qilsa, davlati rivojlanishi uchun harakat qilsa va shu yo'lda borini ayamasa, unga kim xalaqit beradi? – Ha albatta, har bir insonda nafs degan illat bor. Har kimning nafs jilovi esa o'zining qo'lida. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Ikkinchi jahon urushida fashistlarga qarshi bir yoqadan bosh chiqargan millatlarni olaylik. Agar ular bunday qilmay har yoqqa sochilganida, dunyo teskari aylana boshlagan bo'larmidi? Yoki o'sha paytdagi o'zbek xalqini olaylik. Bir yarim milliondan ortiq turli xil millatli insonlarni o'z bag'riga oldi, frontda va uning ortida borini ayamadi, garchi urush harakatlari yevropada bo'lsa ham bir dam to'xtamadi. Yana bir misol, endigina mustaqil bo'lgan vaqtimizda bizga davlatni qanday boshqarish bo'yicha o'rgata boshladilar va ko'pchilikka ma'lumki, muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Biz ming yillik davlatchilik tarixiga ega davlatimiz. Bizga davlatni qanday boshqarishni o'rgatish shart emas” deb ta'kidlagandi.

Agar o'sha vaqtda xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarmaganda edi, ahvolimiz ruslardan keyin yana boshqa davlatlarga qaram bo'lmaslikni hech kim va'da qila olmas edi.

Bugungi davr jamiyatimizning har a'zosidan, har bir yoshidan faollik va hushyorlikni talab qilmoqda. Biz yoshlar qo'rqmasak, marrani baland olsak, bizga nisbatan ishonch bo'lsa, albatta, biz bu jannatmakon ota zaminni kelajagi porloq bo'lishiga va'da beramiz.

Alloha behisob shukurlar bo'lsinki, Vatanimiz yildan-yilga ravnaq topmoqda, qayoqqa qaramang, obodlik, bunyodkorlikni ko'rasiz. Mehnat qilgan, intilgan kishilar aslo kam bo'lmayapti. Kecha amalga oshirishimiz mushkul tuyulgan ishlarni bugun bemalol bajarayabmiz.[2] Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqi 4 ta katta diniy-mafkuraviy bosqichni ya'ni zardo'shtiylik, buddaviylik, islom, kommunistik kabi bosqichlarni o'z boshidan kechirganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davri tugaguncha necha avlodlar almashganini va bu jarayonlarning millat fe'l-atvorida o'chmas iz qoldirganini unutmaslik kerak.[3] Chunki har bir bosqichda bizning xalqimiz fe'l-atvorida, madaniyatida umuman deyarli barcha narsasida o'zgarishlar sodir bo'ldi va aynan biz o'zbek xalqiga oxirgi bosqich juda katta va albatta salbiy ta'sir qildi. Aynan mana shu davrda bizni millatimizni toptashmoqchi bo'lishdi. Biz kecha nima qilganimiz, qanday xatolarni qilganimiz, qanday holatda bo'lganimiz muhim emas, muhimi "Biz bugun nima qilishimiz kerak?", "Ertangi kunga ishonch bilan yashashimiz uchun nima qilishimiz kerak?" deb bosh qotirishimiz kerak. Agar biz bu haqida o'ylamas ekanmiz, kelajak avlodning zimmasiga zalolat botg'og'iga botib qolgan yurtning olib chiqishdek murakkab ishni qoldirishimizga tog'ri keladi. Bunday bo'lmasligi uchun shu yurtda millatidan, tilidan, dinidan qat'iy nazar, hammamiz birlashib harakat qilishimiz va hech narsadan qo'rqmasligimiz zarur deb bilaman.

Har bir narsaning ibtidosi bo'lgani kabi intihosi ham mavjuddir. Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, arzimagan loqaydlik ortidan katta noxushliklar yuzaga kelishi va uning oqibatlarini chuqur o'ylab ko'rish fursati yetdi. Bu aziz va muqaddas Vatan siz-u bizlarga kecha yoki bugun bunyod etilmagan. Bu muqaddas vatan buyuk ajdodlardan avlodlarga merosdir. Shuning uchun har birimiz, bu Vatan, bu yurt meniki, uning taraqqiyoti menga bog'liq, shu bor kuch va salohiyatimizni baxsh etishga tayyorman, degan qarash bilan yashashimiz, yon-atrofizdagi do'stlarimizni ham shunga da'vat etishimiz lozim. Shunda yurtimiz, xalqimiz, Prezidentimiz orzu qilganidek, buyuk davlatlar qatoriga ko'tariladi. Zero, mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi biz yoshlarning qo'lida.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent. "Ma'naviyat", 2008. -108b;
2. naqshband.uz;

3.Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti xususiyatlari. 49 b.